



XX ASRNING 20-30-YILLARIDA SOVET HOKIMIYATINING “MADANIY INQILOB” SIYOSATI: MOHIYATI VA OQIBATLARI

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika
insituti, Tarix kafedrası dotsent v.b.*

Falsafa doktori (PhD)

Isomiddinov Yo'ldosh Yusubboevich.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarni

o'qitish metodikasi (tarix)

yo'nalishi 1- kurs magistranti

Karimov Raimkul Olimjon-o'g'li.

Annotatsiya: 1920-30-yillarda Sovet ittifoqi tarixida jamiyat hayotining barcha sohalarida tubdan o'zgartirish, avvalo inson ongini yangi ideologik asosda shakllantirishga qaratilgan davr bo'ldi. Ushbu jarayon “madaniy inqilob” nomi bilan tarixga kirdi. Bu siyosat Iosif Stalin davrida kuchli sur'atlarda olib borildi va uning asosiy maqsadi – yangi, sodiq sovet fuqarosini yaratish edi.

Kalit so'zlar: savodsizlikni tugatish, yangi sovet ziyolilarini tarbiyalash, fan va ta'limni sovetlashtirish, din va qadriyatlarga qarshi kurash, san'at va madaniyat ustidan nazorat, madaniy inqilobning O'zbekistondagi aks-sadosi.

Uzbek-Finnish Pedagogical Institute,

Associate Professor, Department of History a.a.

Doctor of Philosophy (PhD)

Isomiddinov Yuldoş Yusubboevich.

1st year master's student in the field of

teaching methods of social and

humanitarian sciences (history)

Karimov Raimkul Olimjon-ugli.



Abstract: *the 1920s and 1930s were a period in the history of the Soviet Union, aimed at radical changes in all spheres of social life, primarily at shaping the human mind on a new ideological basis. This process went down in history under the name of the “cultural revolution”. This policy was carried out with great speed during the Iosif-Stalin era, and its main goal was to create a new, loyal Soviet citizen.*

Keywords: *the elimination of illiteracy, the upbringing of a new Soviet intelligentsia, the Sovietization of science and education, the fight against religion and values, control over art culture, the echo of the cultural revolution in Uzbekistan.*

Madaniy inqilob dastlab xalqni savodli qilishdan boshlandi. 1919-yilda “Savodsizlikka qarshi kurash” haqida dekret qabul qilindi. Shundan so’ng “Likbez”(savodsizlikni tugatish) harakati boshlab yuborildi. Ishchilar, dehqonlar va boshqa mehnatkashlar uchun kechki maktablar, o’quv kurslari ochildi. Natijada 1930-yillarga kelib aholi orasida savodsizlik sezilarli darajada oshdi. Sovet hokimiyati eski ziyolilarni “burjua merosi” deb qoralab, ularning o’rniga yangi, proletar kelib chiqishga ega ziyolilar sinfini shakllantirishga kirishdi. Malaka emas, balki, mafkuraviy sodiqlik asosiy mezonga aylandi. Ta’lim tizimi tubdan o’zgartirildi. Darsliklar va o’quv dasturlari sovet mafkurasi asosida qayta ishlab chiqildi. Tarix, adabiyot, falsafa kabi fanlar kommunistik g’oyalarga moslab o’qitildi. Ilm-fan sohasida mustaqil fikrlash imkoniyati cheklab qo’yildi. “Burjua fani” deya qoralangan ilmiy yo’nalishlar yo’q qilindi. Madaniy inqilob doirasida din jamiyat hayotidan siqib chiqarildi. Masjid, cherkov va boshqa ibodatxonalar yopildi, din xodimlari tahqirlandi yoki ta’qib qilindi. Odamlar orasida ateizm targ’ib qilindi, din “ilmiy dunyoqarashga zid” deb e’lon qilindi. Natijada diniy qadriyatlar, urf-odatlar va marosimlar chetga surildi yoki butunlay yo’q qilindi. Adabiyot, san’at, musiqa, teatr, kino kabi madaniy sohalalari ham siyosiy



nazoratga olindi. Barcha ijodkorlar “sotsialistik realizm” tamoyiliga amal qilishga majbur bo’ldi. Bu yo’nalish faqat sovet mafkurasini targ’ib qilishni talab etardi. Senzura kuchaytirildi, mustaqil ijod uchun joy qolmadi. O’z fikrini erkin bildirgan san’atkorlar ta’qib qilindi, surgun etildi yoki o’ldirildi.

O’zbekiston SSR da ham madaniy inqilob katta siyosiy va ijtimoiy o’zgarishlarga olib keldi. 1920-30- yillarda savodsizlikka qarshi kurash, yangi maktablarning ochilishi, lotin yozuviga o’tish kabi islohatlar amalga oshirildi.. Lekin sovet arboblari va mafkurachilarining bu vaqtinchalik taktikasi uzoqqa bormadi. Ular o’lka hayotiga moslashib, biroz tomir yozib olgach, 20-yillar o’rtalaridan e’tiboran o’zbek xalqi ma’naviy hayotining ko’p zamonlar uzviy tarkibiy qismi bo’lib kelgan eski maktab va madrasa ta’lim-tarbiya tizimini barham toptirdi. Uning ko’p sonli ziyoli vakillari, mullalari-yu mudarrisleri faoliyati to’xtatib qo’yildi. Respublikada boshlang’ich ta’lim tizimining joriy etilishi, keyinroq 7 yillik ta’limga o’tilishi ham xalq ta’limi sohasidagi muhim o’zgarishlardan biri bo’ldi. Maktab qurilishi, uning malakali o’qituvchi kadrlar bilan ta’minlanishi, o’quvchilar soni yil sayin o’sib bordi. Sovet davri statistik ma’lumotlariga qaraganda, agar 1924/25-o’quv yilida O’zbekistonda 160 ta sovet tipidagi maktablar tashkil qilinib, ularda 17209 nafar o’quvchi ta’lim olgan bo’lsa, 1941-yilga kelib bunday maktablar soni 5504 taga va ularda ta’lim olayotgan o’quvchilar soni esa 1 mln 315 ming nafarga yetgan. XX asr 20-yillari ikkinchi yarmida «Hujum» nomi bilan boshlangan harakat o’z mohiyati bilan o’zbek xotin-qizlarini tutqunlikdan, paranji zulmatidan ozod qilishga qaratilgan edi. Turkiston sharoitida o’ziga xos o’ta murakkab xususiyatlarga ega bo’lgan bu ijtimoiy-siyosiy masala hukmron partiya tomonidan hech bir o’ylanmasdan, mahalliy shart-sharoitlarni, xalqning an’anaviy udumlari, urf-odatlarini e’tiborga olmasdan kutilmagan bir holda amalga oshirildiki, bu esa o’lka hayotida ko’plab noxush oqibatlarni keltirib chiqardi. Ma’lumki, Turkiston xotin-qizlari hayoti asrlar davomida musulmonchilik qonun-qoidalari va an’analari asosida kechgan va



o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan. Jumladan, ular aksariyat hollarda mehnatga tortilmas, balki uy-ro'zg'or ishlarida band bo'lishgan va farzand tarbiyasi bilan shug'ullanishgan. Sovet hukumati esa o'zbek xotin-qizlarining bunday turmush tarziga diniy «xurofot» sifatida qaradi. Shu bilan birgalikda ayollarning erkaklar bilan teng huquqliligi, ularning tor oila muhitidan ozod bo'lib, keng ijtimoiy-siyosiy hayotga tortilishi g'oyasi ilgari surildi. Shu narsa haqiqatki, jamiyat rivojlanib borar ekan, odamlarning ongi ham o'zgarishda davom etadi. Turmush tarzi yangilanadi, u zamonga moslashadi. Shu ma'noda o'zbek ayollarini paranjidan ozod qilish muhim vazifalardan biri ekanligi tabiiydir. Biroq bu masalani eng avvalo jamiyat a'zolari, fuqarolari orasida keng ko'lamli tushuntirish, ma'rifiy yo'llar orqali tinch hal qilish mumkin edi. Jadidlar rahbarlari F. Xo'jayev, Fitrat, Cho'lpon, A. Avloniylar ham bu masalani hal etishni o'z oldilariga muhim vazifa qilib qo'ygan edilar. Shu maqsadda tashkil etilgan respublika, viloyat, tuman, shahar va quyi sovet tashkilotlari qoshidagi xotin-qizlar bo'limlarida dastlab umuman to'g'ri ish olib borilgandi. Ularning sa'y-harakatlari bilan teatrlar, klublar, kutubxonalar va boshqa madaniy-ma'rifiy muassasalar bunyod etilib faoliyat ko'rsata boshladi. 1929-yilda o'zbek musiqali teatriga asos solindi. 1933-yilga kelib Hamza nomli akademik drama teatri ish boshladi. Har qanday mafkuraviy tazyiqlarga qaramasdan milliy ruh ustuvor bo'lib qolaverdi. Xalqimiz orasidan uning asriy dil armoni, orzu-istaklarini kuylagan Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Ota G'iyos Abdug'aniyev, Domla Halim Ibodov, Mulla To'ychi Toshmuhamedov, Madrahim Sheroziy, Shorahim Shoumarov, Abror Hidoyatov, Soraxonim, Tamaraxonim, Lutfixonim, Mukarramaxonim singari nomdor san'atkorlar yetishib chiqdi va dovuq qozondi. 20—30-yillarda respublikada ko'plab madaniy inshootlar qurildi. 1932-yilda respublikada 707 ta kutubxona, 3087 ta klub, 409 ta kinoqurilma, 32 ta teatr, 13 ta muzey faoliyat ko'rsatdi. O'zbekistonda madaniy qurilish jarayonining chuqurlashib borishiga mamlakatda avj olgan totalitar tuzum zo'ravonligi va bedodligi jiddiy to'sqinlik tug'- dirdi.



Bunday keskin, nosogʻlom muhitda madaniyat muassasalarining faoliyati cheklanib, bu soha xodimlarining ijodkorligi har tomonlama qiyin-qistov va siquvga olindi. Bu esa respublika madaniy hayoti maromining normal kechishiga, shubhasiz, salbiy taʼsir koʻrsatdi.

Xulosa oʻrnida sovet hokimiyatining madaniy inqilobi – bu savodxonlikni oshirish va fan-taʼlimni ommalashtirish kabi ijobiy natijalarni berish bilan birga, inson erkinligini cheklovchi, milliy madaniyat, din va ziyolilar qatlamini yoʻq qiluvchi mafkuraviy vosita ham boʻlgan. Bu siyosat jamiyatni toʻliq sovetlashtirish, yagona mafkuraga boʻysundirish yoʻlida amalga oshirilgan va butun SSSR xalqlarining tarixiy taraqqiyotiga chuqur iz qoldirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati.

1. “Oʻzbekiston tarixi” (1917-1991- yillar) Q.Usmonov, va M.Sodiqov lar. 72-106-sahifa.
2. Turkistonda 1917-yil ijtimoiy-siyosiy oʻzgarishlar, Ziyonet.uz sayti
3. http://uz.wikipedia.org/wiki/Oʻzbekiston_Sovet_Sotsialistik_Respublikasi